

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

Joraboyeva Tabassum G'ulomjon qizi
Toshkent Davlat Agrar Universiteti talabasi
Ilmiy maslahatchi: dotsent H.Xushvaqtov

Annottasiya: Ushbu tezisda umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda ilg'or zamонавиј та'lim shakli bo'lgan, mustaqil ta'limning turlari va turli texnologiyalar asosida vositalari ko'rsatilgan.

Mustaqillik yillarda barcha fanlar qatori biologiya fanini rivojlantirish uni moddiy texnika jihozlari (lobaratoriya) bilan ta'minlashga kata e'tibor berildi. Bu amaliy ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bularning huquqiy asosi, "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi va Ta'lim to'g'risidagi" qanunlar bilan belgilab qo'yildi. Chunki hamma zamonlarda ham tabiiy fanlar iqtisodiy samaradorlikka erishishda asossiy fanlar hisoblanadi. Bu ishlarning mantiqiy davomi bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" deb e'tirof eilayotgan yurtimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish ayniqsa maktab ta'limida tabiiy fanlar yani biologiya faninni zamon talablari asosida o'qitish muhim ahamiyat hisoblanadi. Shu jumladan fabbi o'qitishda mustaqil ta'lim shakllari va turlarini yangi innavasiyon usullarda o'quvchilarga yetkazish har biq pedagog uchun muhim hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan biologiya fanini har tomonlama rivojlantirish va pedagoglarni qo'llab-quvvatlashga kata e'tibor berilmoxda. Prezidentimiz SH. Mirziyoev ta'kidlaganidek, - "Kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini qo'shimcha moliyalashtirish, ularni jihozlash, o'qituvchilarga ustama haq to'lash hamda kimyo va biologiya fanlarini o'qitish bo'yicha boshqa tadbirlarni moliyalashtirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган maxsus jamg'armalar tashkil etilsin"¹ qarori buning yaqqol misolidir.

Bilamizki, har bir fanni o'qitishda mustaqil ta'lim muhim hisoblanadi. Bu rivojlangam mamlakatlar ta'lim tizimida ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda Singapur va Fillandiya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida mustaqil ta'limga kata e'tibor berilgan. O'quvchi mustaqil o'simliklar, hayvonot dunyosi va bosh jarayonlarni mustaqil kuzatadilar. Faqat o'qituvchi yo'naltirishni bilishi kerakligi talab qilinmoqda.

Mustaqil ishdan o'qitishning barcha shakllarida, jumladan, darsda, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda, ekskursiyalarda foydalanish mumkin. SHuningdek, undan darsning barcha bosqichlarida, masalan, o'tgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, yangi mavzuni o'rganish, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, nazorat qilish, baholashda foydalansa bo'ladi.

Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan mustaqil ishlarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat: -o'quvchilarni biologiya fanining asoslari bilan tanishtirish, ilmiy

¹ <https://lex.uz/docs/-4945470>

dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish; -biologiya fani asosi bo'ladigan kasblar bilan tanishtirish; -o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuzatish, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalari, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish: -o'quvchilarni turli manbalardan foydalanib, mustaqil bilim olishga o'rgatish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirish; - o'quvchilarning aqliy, ahloqiy, iktisodiy, ekologik va sanitargigienik ta'lif va tarbiyasini takomillashtirish. Biologiya fanini o'qitishni undan foydalaniladigan mustaqil ishlardan, o'quv vositalari, didaktik maqsadga qarab ham klassifikatsiya qilish mumkin. O'qitish vositalariga ko'ra mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'zlashtiriladigan bilim manbai sifatida tabiiy va tasviriy ob'ektlar va qo'shimcha o'quv adabiyotlari, texnik vositalar, kompyuter texnologiyalarini olish mumkin.

Mustaqil ishlarning mustaqillik darajasiga ko'ra: -reproduktiv darajadagi mustaqil ishlarda o'quvchilarning olgan yangi bilimlarini mustahkamlash, ob'ektlarni aniqlash va tasniflash ishlarni amalgalash oshirish ko'zda tutiladi. -Izlanish xarakteridagi mustaqil ishlarda o'quvchilar o'kuv materiallarini izlanish orqali o'zlashtiradi. Masalan, gulli o'simliklar oilalari o'rganilgandan so'ng o'kuvchilar o'qituvchi tavsiya etgan gerbaryylardan foydalanib, o'simliklar oilasini mustakil aniqlaydilar. -Tadqikot xarakteridagi mustaqil ishlarning 3 ta ko'rinishi bir-birini taqozo etadi va to'ldiradi. Didaktik maqsadga ko'ra mustaqil ishlarning quyidagi shakllari bor. Ulardan foydalanish yaxshi samara beradi, deb hisoblash mumkin. -O'quvchilar avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalar asosida yangi lariningbilim va ko'nikmalarni egallashi kerak. -Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llashi lozim. -O'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni nazorat qilish va baholash. -Avval o'rganilgan va endi o'rganilayotgan ob'ektlarni taqkoslab, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniklashga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish. Mustaqil ishlarning didaktik maqsadi o'quv topshiriqlarining mazmunini belgilaydi. O'qituvchi mustaqil ish topshiriqlarini didaktik maqsadi bilan bir qatorda o'quvchilarda mavjud bo'lgan amaliy va o'quv ko'nikmalari, o'quv materialining mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olish, o'quvchilarning ruhiy zo'riqishining oldini olish zarur. YUqorida qayd etilgan mustaqil ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning bilim faoliyatini bir xil bo'lmasligiga et'iborni qaratish zarur. O'quv faoliyatining barcha turlari kabi mustaqil ishlarni ham nazorat qilinishi va baholanishi shart. O'qituvchi o'zining samimiyn munosabati. o'z vaqtida uyushtirgan yordami va rag'batlantirishi bilan o'quvchilarning mustaqil ishlari dagi muvaffaqiyatiga zamin tayyorlaydi. Mustaqil ishlarni tashkil etish shakliga ko'ra: - o'quvchilarning individual tarzida ishlashga mo'ljallangan; -kichik guruhlarda ishlashlariga mo'ljallangan; - o'quvchilarning frontal yoki yoppasiga ishlashiga mo'ljallangan mustaqil ishlarga ajratish mumkin. Ular bir-birini to'ldiradi.

Xulosa shuki, mustaqil ta'lif o'quvchilarning erkinligini ta'minlash bilan bir qatorda, ijodiy fikrlashga, mustaqil yangiliklar yaratishga katta ishonch hosil qiladi. Shuning uchun bugungi kun o'quvchisini zamon talablariga javob beradigan, zamonaviy fikrlaydigan, zukko va komil insonni tarbiyalar ekanmiz, biz pedagoglarga ham katta talablar oldimizga qo'yiladi. Shunday ekan, mustaqil ishlarni o'quvchilar bilim faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, unga e'tibor qaratish va samarali tashkil etish lozim.